

Protokol ozon qatlamining tiklanishiga imkon berishda hal qiluvchi rol o'ynadi, ekologik muammolarni hal qilishda global hamkorlik samaradorligini ko'rsatdi. Doimiy hushyorlik va protokollarga rioya qilish ozon qatlamini barqaror himoya qilishni ta'minlash va u bilan bog'liq xavflarni kamaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonuni (1992-yil 9-dekabr, 754-XII-son)
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun (1996-yil 27-dekabr, 353-I-son)
3. B.Y. Abdug'aniev, Bojxona ekspertizasi xalqaro savdoda tovarlarni tasniflash, DBQ-2014 y.
4. Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli (1987-yil 16-sentyabr)

SAMARQAND VILOYATIDAGI SUV OMBORLARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRI

Abdurayimova Oytula Boltatosh Qizi
oytula.ms@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Mavzuning dolzarbligi. Daryolardagi suv miqdori yil davomida mavsumdan, mavsumga va yildan yilga o'zgarib turadi. Yer yuzidagi ayniqsa, O'rta Osiyo kabi arid iqlimli hududlardagi ba'zi bir daryo va soylarning suv miqdori yil davomida shu qadar notekis va noqulay taqsimlanganki, bu muammolarni oldini olishda suv omborlarining o'zni nihoyatda katta hisoblanadi. Yurtimizda suv muammosi uning tanqisligi eng katta muammolardan biri bo'lib, hozirgi vaqtda bu muammo bizning viloyatda ham sezilmoqda.

So'nggi yillarda sug'oriladigan maydonlarni kengayishi, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarning o'zlashtirilishi, hamda suv oqimlarini rostlashda suv omborlarining ahamiyati ortib bormoqda. Hozirda viloyat tasarrufida 104 mln sig'imga ega bo'lgan 8 ta suv omborlari va sel omborlari viloyatimizning 18 500 dan ortiq qishloq xo'jaligi maydonlarini suvga bo'lgan ehtiyojini qondirmoqda. Kelgusida bu ko'rsatkichni yanada kengaytirish chora-tadbirlari rejalashtirilmoqda. Viloyatda mavjud suv omborlaridan unumli va xavfsiz foydalanish, tuproq qatlami va ekologik-meliorativ xususiyatlariga alohida e'tibor berilishi va o'z vaqtida ta'mirlash-tiklash texnik chora-tadbirlari ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Suv omborlarini hududning ekologik-meliorativ holati atrof-muhitga ta'siri mutaxassislar tomonidan doimiy kuzatuv nazorat ostida turadi. Shuningdek, suv omborlarini loyqa bosishi va turli xil ifloslanishlardan saqlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ba'zan suv omborlarini loyqa bosishi va loyqalar bilan to'lishi natijasida suv omborlari yaroqsiz, butunlay ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Suv omborlarida jang'arilgan suvlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ham doimiy nazoratda turadi.

Tadqiqot maqsadi. Suv omborlarini loyihalayotganda ulardan har tomonlama kompleks foydalanish ko'zda tutiladi. Lekin bunda ularning atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'sirini ham o'rganish muhim masalalardanidir. Suv omborlari atrof-muhitni tashkil qiluvchilari gidrosfera va atmosfera, biosfera va geodinamik sharoitni shakllantiruvchi barcha faktorlar, ya'ni, relef, yer osti suvlari rejimi, iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, landshaft va boshqalarga ta'sir ko'rsatadi. Eng yirik suv omborlarining ham iqlimga ta'siri keng maydonga tarqalmaydi. Bunda ayrim hududlar mikro-iqlimi radiatsiya yig'indisining ortishi va radiatsion balansning ko'tarilishi, suv omborining quruqlikka nisbatan yuqoriroq issiqlik sig'imi bilan aniqlanadi. Bunday ta'sir turli regionlarda turlicha bo'lishi mumkin. Quruq iqlimlik zonalarda suv ombori ta'siri nam zonalarga nisbatan kuchsiz. Bahorda suv omborlari qirg'oq bo'yi hududlariga salqinlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi, issiq davrning ikkinchi yarmida esa, ildiqlik beradi. Suv omborlarining yer osti

suvlari sathi va rejimiga ta'siri esa kuchli. Suv ombori qurilganga qadar daryo yer osti suvlarini qabul qiluvchi bo'lib, suv ombori to'ldirilib borishi bilan yer osti suvlari sathi ham ko'tarilib boradi va yana suv omboriga suv berdi. Ammo sathini ko'tarib olguncha, suv ombori hisobidan to'yinadi. Bunda yer osti suvlari nishabliligi va oqim tezligi kamayib, sathining ko'tarilishini ta'minlaydi. Natijada zaminning drenaj xususiyati kamayadi. Yer osti suvlarining dimlanib bosimining ko'tarilishi mahalliy sharoitga bog'liq bo'lib, ta'sir doirasi qirg'oqdan boshlab bir necha o'n metr dan ko'plab kilometrlargacha yetishi mumkin. Suv omboriga yaqin joylaridagi grunt suvlari sathi yil davomida tez-tez va katta diapazonda o'zgarib turadi, ya'ni suv tashlanganda pasayib, suv ombori to'ldirilganda ko'tariladi. Grunt suvlarining ko'tarilishi atrofda joylashga binolar fundamentlari, yer osti kommunikatsiyalari, qishloq xo'jalik maydonlari va o'rmonchilik xo'jaliklari hududlarida zamin namligining ortib ketishi, va yer yuzasiga chiqqan holda esa botqoqlanishga, va uning ta'sirida esa sho'rlanishga olib keladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, salbiy ta'sirlar bilan bir qatorda ijobiy ta'sir ham bo'lishi mumkin. Yer osti suvlari tabiiy holda juda chuqur joylashgan bo'lsa, suv ombori qurilishi va suv sathining ko'tarilishi grunt suvlari zapasining ortishi va o'simlik dunyosining yaxshi rivojlana boshlashiga olib keladi.

Suv ombori yordamida oqim hajmining boshqarilishi tevarak atrofdagi tuproq va o'simlik qatlamining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Bunday ta'sirning quyidagi turlari mavjud:

- doimiy, davriy va epizodik suv bilan qoplanishi
- grunt orqali pastdan kuchli, o'rtacha va kuchsiz suvning namlik ta'siri
- aktiv va epizodik iqlimiy ta'sir.

Tuproq va o'simlik qatlamiga ta'sir orqali bo'ladigan o'zgarishlar o'lchamlari turlicha bo'lib, tekislikda joylashgan suv omborlariniki juda katta bo'ladi. Ba'zi zonalar kengligi bir necha metr dan kilometrlargacha yetib boradi. Davriy suv bosadigan territoriyalarda botqoqliklar shakllanadi, grunt suvlari yer yuzasiga juda yaqin joylashadi. Bu yerlarda tuproq namligi faqat grunt suvlari joylashgan chuqurlik bilangina emas, balki kappilyar ko'tarilish miqdori bilan ham o'lchanadi. Uning qiymati gruntning mexanik tarkibiga bog'liq bo'lib, 0,5-1,0 m dan 6,0 m gacha yetishi mumkin.

Grunt suvlari sathi 1-2 m chuqurlikda bo'lgan zonalarda grunt gumus, azot, fosfor, kalsiy, temir birikmalari bilan to'yinib, doimiy maysazorlar paydo bo'ladi. Grunt suvlari 2-4 m chuqurlikda bo'lsa, gumus jinslarning harakatlanuvchanligi ortadi. Doimiy suv bosgan territoriyalarda avval mavjud bo'lgan o'simlik qatlamining yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Doimiy sayoz suv bosadigan, yoki vaqtinchalik suv bosadigan joylarda gidrofil va gigrofil assotsiatsiyalar qatlami hosil bo'ladi. Bularning rivojlanishiga suv omborining sath rejimi, to'lqindan himoyalanganlik, avvalgi o'simliklari turi va tarkibi, joyning reliefi va suv ombori tubi gruntlari, suvning kimyoviy tarkibi va boshqalar ta'sir ko'rsatadi. Grunt suvlarining ko'tarilishiga daraxt va butalar o'tlardan ko'ra kuchliroq ta'sirlanadilar. Doimiy suv bosgan hududlarda ular asta sekinlik bilan yo'qolib ketadilar. Vaqtinchalik va kam suv bosadigan joylarda suv va minerallar bilan to'yinish yaxshilanadi, natijada daraxtlar va boshqa o'simlik turlari yaxshi o'sadi. Shuni aytib o'tish kerakki, tuproq va o'simlik qatlamining, suv rejimining o'zgarishi faunaning o'zgarishiga olib keladi, chunki yashash sharoiti va ozuqa bazasi o'zgaradi.

Viloyatdagi eng yirik suv omborlari Kattaqo'rg'on va Oqdaryo suv havzalari hisoblanadi.

Oqdaryo daryosining o'zanida joylashgan Oqdaryo suv ombori 1989 yilda foydalanishga topshirilgan bo'lib, u 7 balgacha zilzilaga bardosh beradi va 110 million metr kub suv sig'imiga ega. Kattaqo'rg'on suv ombori esa 7 balgacha zilzilaga bardoshli, Qoradaryo daryosidan "Damxo'ja" gidrouzeli orqali to'ldiriladi.

Oqdaryo suv ombori Samarqand viloyatining shimoli-g'arbida joylashgan bo'lib, ma'muriy jihatdan viloyatning Ishtixon va qisman Kattaqo'rg'on tuman hududini o'z ichiga oladi. Hozirda suv ombori suvidan Navoiy GRESi va Kattaqo'rg'on tumanining 350 ga yeriga, Navoiy viloyati Xatirchi tumanining 1200ga qishloq xo'jalik ekin maydonlarini sug'orishga sarflanmoqda.

Suv ombori barpo etilgach havoda va tuproqda namlanish koeffitsiyenti oshgan. Jumladan atrofdagi 60-70ga yerning sizot suvlari ko'tarilib, tuproq holati yomonlashgan. Suv omborining

50-100 m atrofda qirg'oqbo'yi pelosasida yer osti suvlarining sathi ko'tarilib ketgan. Bu holat qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish imkonini kamaytiradi, yerlarning meliorativ holatini yomonlashtiradi. Suv omborining quyi qismida namlanish darajasi yuqori, hatto aholi turar joylarida namlik yuqori ekanligi kuzatiladi. Hozirgi kunda ushbu salbiy oqibatlarni kamaytirish maqsadida suv omborining atrofida kollektor-drenaj tizimi barpo etilgan. Shulardan markaziy kollektor nomi Sariyoz ko'li deb ataladi. Bundan tashqari, suv ombori atrofida qirg'oq mintaqalariga 50 ming tup tol va teraklar ekilgan. Ular suvga talabgor daraxtlar bo'lib, ular tuproqdagi ortiqcha namni o'ziga tortib oladi. 1994 yilgacha asosiy e'tibor faqat suv omboriga suvni to'ldirish va uni qanday sarf etishga qaratilgan bo'lsa, 1994 yildan boshlab qo'shimcha ravishda suv ombori yaqinidagi ekin ekishga yaroqsiz yerda (15-20ga), suv ombori hududidan oqilona foydalanish maqsadida ilonchilik xo'jaligi tashkil qilinib, tibbiyot uchun zarur bo'lgan ilon zahrini olishni amalga oshirishni boshlagan, lekin ayrim sabablarga ko'ra bu faoliyat 1996 yilga kelib tugatilgan. 2009 yilga kelib bu yerda baliqchilik xo'jaliklari tashkil etilib u yerda 10-15 turdagi baliqlar yetishtirib kelinmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin, viloyatdagi mavjud suv omborlaridan ko'p maqsadli foydalanish usullarini rivojlantirish va bu sohani takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Suv omborlarining qurilishida ularni texnik jihatdan mukammal holatda barpo etish, daryolar suv rejimini tartibga solish, gidroenergetika, baliqchilik va rekreatsiya maqsadlarida samarali foydalanishni tashkil qilish bilan birga xalq xo'jaligining ehtiyojlarida suv resurslaridan unumli va tejab-tergab, oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulqosimov A., Jo'raqulov X. Закономерности дифференциации ландшафтов Зарафшанских гор и приглежащих равнин. Самарканд-2022.
2. Гаппаров Ф.А. Сув омборларини хавфсиз ва самарали ишлатишни ташкил этиш. «AGRO ILM» Журнали. –Тошкент, 2007. - № 4. –Б.22.
3. Журакулов Х. “История развития рельефа и природы Юго-Западного Узбекистана в новейшем этапе. // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 28-жилд. – Тошкент. 2007.
4. Muhammadiyev S. A. va boshqalar. Omonqo'ton ona tabiat mo'jizasi. Samarqand, 2007.

ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISH DARAJASINI GIGIYENIK BAHOLASH

*Boqijonov F.A., Nazirova M.R.
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

Kirish. Respublikaning samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida, so'nggi yillarda mamlakatimizda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining muhim asosi sifatida aholi salomatligi uchun maqbul sharoitlarni yaratish va ekologik muvozanatni saqlashni takomillashtirishga yo'naltirilgan chuqur islohotlar olib borilmoqda

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ma'lumotlarga ko'ra bizning davrimizga kelib, atmosfera havosidagi changlar miqdori o'tgan XX-asrga nisbatan 20%ga oshgan. Odamlar sixat salomatligiga xavf tug'diruvchi zaxarli moddalarning aksariyati, shu jumladan uglerod oksidining 65-97%i, uglevodlarning 56-75 %i. va azotning 46-63%i mamlakat aholisining yarmidan ko'p qismi yashaydigan shaharlardagi mavjud avtotransport vositalaridan chiqayotgan ifloslantiruvchi moddalar xisobiga xosil bo'ladi [6,7,8,9,10].

Farg'ona viloyat ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish boshqarmasi, viloyat IIB, viloyat SEO va JS boshqarmasining Farg'ona shahar bo'limi xodimlari bilan birgalikda o'tkazilgan 2020-2022 yillar davomidagi tekshiruvlari asosida aniqlangan ma'lumotlar asosida ilmiy izlanishlar olib borildi.